

## **Jismoniy shaxsga bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy oferta shartnomasi**

Ushbu “Jismoniy shaxsga bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy oferta” (keyingi o‘rinlarda - “Oferta”) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367- va 369-moddalariga muvofiq, jismoniy shaxslarga milliy va xalqaro bank kartasini ochish, undan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnoma tuzish bo‘yicha yuborilgan rasmiy ommaviy taklif bo‘lib hisoblanadi.

Ommaviy oferta shartnomasi Mijoz tomonidan ariza belgilangan tartibda to‘liq to‘ldirilgan vaqtdan boshlab tuzilgan (akseptlangan) hisoblanadi hamda mijoz mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va Bank Tariflariga asosan to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.

### **1. UMUMIY TAVSIFLAR**

**Mijoz** – bank xizmatidan foydalanish istagida Bankka murojaat qilgan, ushbu xizmatdan foydalanayotgan yoki oldin foydalangan jismoniy shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari);

**Rezident** - O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs yoxud normativ hujjatlarga asosan rezident maqomi berilgan jismoniy shaxslar;

**Norezident** – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lmagan shaxs;

**Bank kartasi** – uni saqlovchisiga to‘lov infratuzilmari orqali to‘lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul mablag‘larini olish yoxud valyuta ayirboshlashni amalga oshirish va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to‘lov vositasidir;

**Virtual karta** – elektron shakldagi bank kartasi bo‘lib asosiy kartaga yoki hisobvaraqa bog‘lanadi va to‘lovlarni amalga oshirishda zarur bo‘lgan bank kartasining majburiy rekvizitlariga ega bo‘lgan to‘lov vositasi;

**Qo‘shimcha bank kartasi** – Mijozning arizasiga ko‘ra, o‘z nomiga yoki uning ishonchli vakili nomiga (oila a‘zolari), operatsiyalarni dastlabki bank karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari doirasida amalga oshirish uchun chiqarilgan bank kartasi;

**Bank emitent** – bank kartasi emissiyasini amalga oshiruvchi, o‘zi emissiya qilgan bank kartalariga mulk huquqiga ega bo‘lgan va ularning saqlovchilari va ekvayerlari oldida ular tomonidan bank kartalaridan foydalanilgan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish huquqlari bo‘yicha o‘z nomidan majburiyatlarni zimmasiga olgan bank;

**Bank ekvayer** – bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, hamda bank karta egasiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish va infokioska orqali naqd pulsiz shaklda xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi bank;

**Mahalliy to‘lov tizimlari kartalari** – bank emitent tomonidan emissiya qilingan Uzcard/Humo to‘lov tizimi bank kartalari egasiga undagi mablag‘lar doirasida bank hisobvarag‘i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag‘idan naqd pul olish imkoniyatini beruvchi milliy to‘lov vositasi;

**Xalqaro karta (keyingi o‘rinlarda - XK)** – Bank emitent tomonidan emissiya qilingan “Visa”, “Mastercard”, “Unionpay” bank kartasi egasiga undagi mablag‘lar doirasida bank hisobvarag‘i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvaraqdan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to‘lov vositasi;

**Xalqaro to‘lov tizimlarining emissiya tartibi** - alqaro to‘lov tizimlari (“Visa”, “Mastercard”, “Unionpay”) tomonidan bank kartalarini emissiya qilish bo‘yicha qo‘yilgan talablar;

**Pin-kod** – shaxsiy identifikatsiya raqami, 4 xonadan iborat raqamli maxfiy kod, karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini hamda mablag‘larni boshqarishga bank kartasi egasi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

**Kontaktsiz to‘lov** - bank kartasini to‘lov terminaliga va/yoki bankomatga tekkizish yo‘li bilan to‘lovni amalga oshirish usuli. To‘lov tizimi tomonidan belgilangan miqdorgacha bo‘lgan to‘lovlar Pin-kodni kiritmasdan amalga oshirilishi mumkin;

**Bankomat** - bank kartasining saqlovchisiga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish tartibida naqd pul olish va bank kartasi bilan boshqa amaliyotlarini amalga oshirish imkonini beruvchi hamda bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha slip hujjat shakllantiruvchi qurilma;

**Tranzaksiya** –bank kartasi orqali amalga oshirilgan amaliyot;

**Bank kartasining blokirovkasi** - xalqaro va mahalliy to‘lov tizimining qoidalariga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida hamda bank tomonidan tasdiqlangan ““O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bank kartalari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi”ga muvofiq bank kartalarini amal qilishini vaqtincha to‘xtatish yoki uni bekor qilish bo‘yicha bank tomonidan ko‘rilgan chora;

**Ko‘chirma** – mijozning talabiga ko‘ra bankda shakllangan bank kartasi hisobvarag‘idan ko‘chirma;

**To‘lov tizimlari** - to‘lovlarni to‘lov tizimining operatori, to‘lov tizimi ishtirokchilari va (yoki) to‘lov tashkilotlarining to‘lov tizimi operatori tomonidan belgilangan to‘lov tizimining tartib-taomillarini, infratuzilmasini va qoidalarini qo‘llash vositasida hamkorlik qilish yo‘li bilan amalga oshirishni ta‘minlaydigan munosabatlar majmuidir;

**Tovar (ish, xizmat) sotuvchisi** – ekvayer bank bilan tuzilgan shartnomaga asosan tovar (ish yoki xizmat)lar uchun bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan to‘lovlarni qabul qilish majburiyatini oluvchi mahsulot sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxs (yoki yakka tartibdagi tadbirkor);

**Slip** – bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi,

operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va ushbu hujjatni shakllantirishda foydalanilgan bank kartasi, terminal yoki bankomatni to'g'ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'zida mujassamlashtirgan qog'oz yoki elektron shakldagi hujjat (chek);

**Bank tarifi** – “O‘zsanoatqurilishbank” ATB boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, bank kartalarni muomalaga chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda, bank kartalari faoliyati bo'yicha undiriladigan komission to'lovlar belgilangan hujjat;

**Minimal balans qoldig'i (Sug'urta depoziti)** – Bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i;

**Bankdan tashqari to'lov tashkiloti** –To'lov tashkiloti belgilari va uning qoidalarini belgilovchi va bunday turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar (CLICK, PAYME, PAYNET va b.);

**Masofaviy bank xizmatlari (MBX)** - Mijoz tomonidan masofadan turib telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda uzatiladigan (olingan) elektron almashinuvlar asosida ko'rsatiladigan bank xizmatlari to'plami. Jumladan:

**Internet to'lov** - Bank karta egasiga internet tarmog'i orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish;

**Ushlab turish (Hold)** – Bank kartasi orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tranzaksiya va komissiya summasini vaqtincha muzlatish;

**Akseptlash** – mijoz tomonidan karta bilan bajariladigan amaliyotga rozilik berish yoki oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi;

**Ichki nazorat tizimi hujjatlari** – Bankning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi hamda firibgarlikka qarshi kurashish doirasida qabul qilingan ichki hujjatlari va ulardagi talablar.

## **2.SHARTNOMA PREDMETI**

2.1. Oferta shartnomasini akseptlagan mijozga bank hisobvarag'ini (milliy valyutada va chet el valyutasida) ochish, bank kartalarini chiqarish, shuningdek ushbu shartnoma va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank kartasi hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar shartnoma predmeti bo'lib hisoblanadi.

## **3.BANK KARTA HISOBVARAG'INI OCHISH, BANK KARTASINI CHIQARISH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBI**

3.1. Mijoz tomonidan ariza taqdim qilingandan so'ng, o'sha kunning o'zida, mijoz nomiga bank karta hisobvarag'i hamda 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay bank kartasi ochiladi. Bunda quyidagi hollar mustasno:

- Kartani ro'yxatga olishda dasturiy xatolik kelib chiqqanda;
- Bankning moddiy texnik bazasiga oid muammolar yuzaga kelganda;
- Hisobraqam ochish yoki karta emissiyasiga to'sqinlik qiluvchi qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar aniqlanganda;

- Norezident mijozlarga bank kartasi ochishda;

- Boshqa koʻzda tutilmagan holatlar.

3.2. Bank karta hisobraqami ochilib, bank kartasi chiqarilganidan keyin, Bank kartasi mijoz bankka kelgan holda, uning shaxsi identifikatsiya qilinganidan keyin mijozga topshiriladi yoki mijoz xohishiga koʻra pochta xizmati orqali mijozning shaxsan oʻziga yetkazib berilishi yoxud notarial tasdiqlangan ishonchnomaga asosan mijozning ishonchli vakiliga berilishi mumkin.

3.3. Bank kartasini pochta xizmati orqali yetkazib berish, qoʻshimcha haq evaziga amalga oshirilishi mumkin. Qoʻshimcha haqning miqdori Bank tariflarida belgilanadi yoki u Bankning maxsus saytlarida, mobil ilovada joylashtirib boriladi.

Shuningdek ariza berilgan bank kartasi boshqa yuridik shaxs boʻlgan (outsorsing) kuryerlik xizmati orqali yetkazilishi belgilanganda, yetkazib berayotgan tashkilot tomonidan yetkazib berish hizmat haqi belgilanadi.

3.4. Bank kartasining muddati, kartaning old tomonida koʻrsatiladi. (Masalan: 03/24. – 31 mart 2024 yil 24:00 qadar.)

3.5. Bank kartasi mazkur shartnomada, toʻlov tizimlarining qoidalarida, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va bankning ichki meʼyoriy hujjatlarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organ tomonidan bloklanishi mumkin.

3.6. Bank kartasi mijoz tomonidan uning yozma murojaatiga, bankning aloqa markazlari orqali murojaatiga asosan yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklanishi mumkin.

3.7. Mijoz nomiga qoʻshimcha bank kartasini chiqarish va ularga xizmat koʻrsatish mazkur shartnoma bilan tartibga solinadi, agarda Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan boʻlsa.

3.8. Xalqaro karta Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganida, qabul qiluvchi mamlakatning milliy valyutasiga tegishli xalqaro toʻlov tizimi tomonidan belgilangan kurs boʻyicha avtomatik ravishda konvertatsiya qilinadi.

3.9. Bank kartalari mijoz tomonidan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun toʻlov terminallari/internet tarmoqlari orqali toʻlovlarni amalga oshirish;

bankomatlar /infokiosklar/ orqali toʻlovlarni amalga oshirish;

bank kassalari/bankomatlari orqali naqd pul olish;

mazkur shartnomaga va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

3.10. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar 40 (qirq) kalendar kun ichida mijoz tomonidan yozma ravishda eʼtiroz bildirilmagan har qanday tranzaksiyalar amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar bilan bogʻliq nizolar, tegishli xalqaro toʻlov tizimi qoidalari asosida koʻrib chiqiladi.

3.11. SWIFT orqali kelib tushgan oʻtkazmalarni jismoniy shaxslarning omonat hisobvaraqlariga va milliy yoki xalqaro plastik karta hisobvaraqlariga kirim qilish va naqd pul berishda summadan bank komissiyasi undirilishi mumkin.

## **4 .TOMONLARNING HUQUQLARI:**

### **4.1. MIJOZNING HUQUQLARI:**

4.1.1. Bank kartasidagi mablag'lardan amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda erkin foydalanish va bank karta hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalar olish;

4.1.2. Bank kartasidan shaxsan foydalanish (Uchinchi shaxslarga berish amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan Ishonchnomaga asosan). Biroq, bunda bank kartasini uchinchi shaxslarga foydalanishga berish bilan bog'liq bo'lgan barcha salbiy oqibatlar uchun javobgarlik mijoz zimmasida bo'ladi;

4.1.3. Bank emitentdan, bank kartasidan foydalanish qoidalari, ular orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish bo'yicha bank karta egasi va bank emitentning javobgarlik chegarasi to'g'risida to'liq axborotlar olish;

4.1.4. Bank kartasi yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, bu haqida Bankni yozma va/yoki telefon orqali xabardor qilgan holda, Bank kartasi orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni to'xtatib qo'yish (bloklash);

4.1.5. Ehtiyotsizlik yoki e'tiborsizlik tufayli yoki bank kartasi PIN kodini noto'g'ri terishi natijasida bloklanib qolgan (blokka tushib qolgan) bank kartasini qayta aktivlashtirish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilgan holda bank kartasini blokdan chiqarish bo'yicha bank tarmog'iga shaxsan murojaat qilish yoki bank mobil ilovasi orqali mustaqil ravishda amalga oshirish;

4.1.6. Bank tomonidan ushbu shartnomaning 5-bo'limida qayd etilgan majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;

4.1.7. Bank tariflarida belgilangan to'lovlarni amalga oshirgan holda, qo'shimcha bank kartalarini chiqarish bo'yicha Bank emitentga murojaat qilish;

4.1.8. Bank tariflari, unga kiritilgan o'zgartirishlar va bank yangi xizmatlari haqida bank xizmatlari ofisi/bank xizmatlari markazi yoki Bankning veb saytlari ([www.sqb.uz](http://www.sqb.uz)) orqali ma'lumotlar olish;

4.1.9. Shartnomani bekor qilish orqali bank xizmatlarini olishdan bir tomonlama voz kechish hamda undagi qoldiq mablag'larni arizada ko'rsatilgan depozit hisobvarag'iga ushbu shartnomaning 5.2.5.-bandida belgilangan muddatlarda o'tkazilishini talab qilish;

4.1.10. Bank kartasi yo'qolgan yoki shikatlangan taqdirda, bank kartasini qayta chiqarish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish;

### **4.2. BANKNING HUQUQLARI:**

4.2.1. Zarur hollarda, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, bank karta hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarni qonuniyligini tekshirish va tegishli hujjatlarni talab qilib olish;

4.2.2. Chiqarilgan bank kartasini mijozga taqdim etishda, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishni talab qilish yoki mijozni raqamli texnologiyalar yordamida autentifikatsiyadan o'tkazish;

4.2.3. Quyidagi hollarda, mijozning roziligisiz, uning Bank kartasi hisobvarag'idan

mablag‘larni ko‘chirish:

Bank Tarifiga yoki mahsulot pasportiga ko‘ra, bank xizmatlari uchun to‘lovlarni;

Bank kartasi hisobvarag‘iga mablag‘lar noto‘g‘ri yoki adashib kirim qilinganda;

karta hisobraqamidagi aktiv qoldiqdan ortiq miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilganda, ushbu mablag‘lar mijoz tomonidan 3 (uch) kunlik muddatda ihtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda.

4.2.4.Mijozning Bank kartasida mijoz qarzdorligi bo‘yicha yetarli mablag‘ mavjud bo‘lmagan taqdirda, mazkur pul mablag‘ini Mijozga tegishli bo‘lgan boshqa bank tomonidan emissiya qilingan bank kartalaridan yoki barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz yechib olish.

Bunda mijozga tegishli bo‘lgan boshqa bank kartalarida ham pul mablag‘lari yetarli bo‘lmagan taqdirda, bank tomonidan qarzdorligi mavjud bo‘lgan bank kartasini muzlatib qo‘yish (bloklash).

4.2.5.O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank kartasi bo‘yicha tranzaksiyalarni amalga oshirishni to‘xtatish/pul mablag‘larini muzlatib qo‘yish.

4.2.6.Bank kartasi bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun, Mijozdan zarur bo‘lgan ma‘lumot va hujjatlar talab qilib olish yoki mijozni raqamli texnologiyalar yordamida autentifikatsiyadan o‘tkazish.

4.2.7.O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida shuningdek, **bankning ichki nazorat va antifrod hamda sanksiyalar bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha ichki qoida (tartib) lari** belgilangan hollarda, bank karta hisob raqamiga mablag‘lar noto‘g‘ri yoki adashib (texnik sabablarga ko‘ra) kirim qilinganda, bank tarifiga asosan to‘lovlar va bank kartasi bo‘yicha boshqa qarzdorliklar mijoz tomonidan 5 (besh) bank ish kunida ihtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda bank kartasini bloklash.

4.2.8.Norezident-mijozlarga ochilgan xalqaro to‘lov kartalarini xalqaro to‘lov tizimlarining emissiya tartibi talablari foydalanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, bank tomonidan bir tomonlama ushbu mijoz bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish va kartani bloklashi mumkin.

Bunda tranzaksiyalarni amalga oshirishni to‘xtatish/pul mablag‘larini muzlatib qo‘yilgan va bloklangan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda mijozga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma(ma‘lumotnoma) yuboriladi.

4.2.9.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan norezident-mijozlar tomonidan respublika banklaridagi hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi yoki halqaro to‘lov tizimining emissiya tartibi o‘zgargan taqdirda hamda Bankning tavakkalchiliklarini baholash siyosatiga asosan bank tomonidan bir tomonlama o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish shuningdek, tranzaksiyalarga cheklovlar o‘rnatish.

4.2.10.Emissiya qilingan bank kartasi mijoz tomonidan 90 kun muddatda olib ketilmagan holatda bank kartasini tegishli tartibda yopish va hisobdan chiqarish.

4.2.11.Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar sababli, shartnoma shartlariga mijozning huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qilmaydigan

o'zgartirishlar bank tomonidan bir tomonlama kiritilishi mumkin.

4.2.12. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirishi mumkin.

## **5. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

### **5.1. MIJOZNING MAJBURIYATLARI:**

5.1.1. Bank kartasidan foydalanishda shartnoma shartlariga, bank kartasidan foydalanish qoidasiga va yo'riqnomalarga rioya qilish.

5.1.2. Bankning talabiga binoan mijozni tegishli ravishda tekshirishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va ma'lumotlarni taqdim etish hamda tegishli ravishda tekshirishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amallarni bajarish.

5.1.3. Chiqarilgan Bank kartalarini bank xodimlaridan yoki kuryerlik xizmati xodimlaridan qabul qilib olishda, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish.

5.1.3. Bank Tarifiga ko'ra barcha to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq to'lab borish.

5.1.4. Bank kartasi xavfsizligini ta'minlash, bank kartasini PIN-kodini va telefon qo'ng'iroqlari va/yoki bank kartasidan foydalanish va ularni boshqarish imkonini beruvchi mobil ilovalar, saytlar va boshqa platformalarga kirish uchun parollarni/kodlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

5.1.5. Bank kartasi yo'qotilganda, o'g'irlatib quyilganda, mijoz tomonidan o'z kartasini texnik ishlash faoliyatini to'xtatib qo'yish (stop list) bo'yicha Bank emitentni qisqa muddatlarda xabardor qilish. Bunda, bank kartasini to'xtatib qo'yish haqida xabar berilguniga qadar amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun javobgarlik Mijoz zimmasida bo'ladi.

5.1.6. Yo'qolgan/shikastlangan bank kartasini qayta rasmiylashtirishda, bank Tariflariga muvofiq to'lovlarni amalga oshirish.

5.1.7. Bank kartasidan faqat bank karta hisobvarag'idagi qoldiq mablag' doirasida foydalanish. Agarda bank karta hisobvarag'ida salbiy qoldiq hosil bo'lgan taqdirda, qarz summasini, qarz vujudga kelgan sanadan boshlab 1 oydan kechiktirmasdan qoplash.

5.1.8. Bank kartasini ochish bo'yicha to'ldirib berilgan arizada aks ettirilgan ma'lumotlar o'zgarganda bu haqida, 5 bank ish kuni Bankni yozma ravishda xabardor qilish.

5.1.9. Bank kartasi hisobvarag'iga noto'g'ri kirim qilingan mablag'lar haqida bankni 2 (ikki) bank ish kuni ichida xabardor qilish va ushbu mablag'larni 3 (uch) bank ish kuni ichida qaytarish.

5.1.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni mustaqil tarzda bajarish.

5.1.11. Bankning internet tarmog'idagi [www.sqb.uz](http://www.sqb.uz) sahifalari/axborot stendlari orqali bankning to'lov tizimi xizmatlari bilan doimiy ravishda tanishib borish.

5.1.12. Mijozni masofadan identifikatsiya qilish va autentifikatsiya qilish imkoni bo'lmagan taqdirda bank ofisiga shaxsan tashrif buyurish va identifikatsiya va/yoki

autentifikatsiyadan o'tish.

5.1.13.Mijoz arizasiga asosan emissiya qilingan bank kartasini bank tarmoqlaridan 90 kundan kechiktirmagan muddatda olib ketish.

## 5.2.BANKNING MAJBURIYATLARI:

5.2.1.Shartnoma shartlariga ko'ra, mijozga bank kartasini muomalaga chiqarish, unga xizmat ko'rsatish hamda bank kartasi hisobvarag'i bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish va uning to'g'riligini ta'minlash.

5.2.2.Mazkur shartnoma shartlari, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari va to'lov tizimi Qoidalari doirasida bank kartasiga xizmat ko'rsatish.

5.2.3.Tranzit hisobvaraqlariga kelib tushgan pul mablag'larini 3 (uch) bank ish kuni davomida bank kartasiga kirim qilish.

5.2.4.Mijozning yozma arizasiga ko'ra 1 (bir) bank ish kunida bank kartasi hisobvarag'i bo'yicha qo'shimcha ko'chirmalarni taqdim etish.

5.2.5.Shartnoma bekor qilinib, bank karta hisobvarag'i yopilganidan keyin mahalliy to'lov tizimlari bank kartasi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini 1 (bir), xalqaro bank kartasi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini 15 (o'n besh) kalendar kundan kechiktirilmagan holda, minimal balans qoldig'i (sug'urta depoziti) bilan mijoz tomonidan ko'rsatilgan tegishli hisobvarag'iga o'tkazib berish.

5.2.6.Bank karta hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni sir saqlash va bunday ma'lumotlarni amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etish.

5.2.7.Bank kartasi shikastlagan/yo'qotilgan hollarda, mijozning yozma yoki masofaviy kanallar orqali qabul qilingan arizasiga asosan, Bank Tariflarida belgilangan to'lov amalga oshirilganidan keyin, mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan muddatlarda bank kartasini qayta chiqarib berish.

## 6.KO'RSATILGAN XIZMATLAR UCHUN XIZMAT HAQI

6.1.Ushbu shartnomaga asosan ko'rsatiladigan bank xizmatlari haqi Bank tariflarida/yoki Mahsulot pasportida belgilanadi.

6.2.Bank tomonidan mazkur shartnomaga asosan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar akseptsiz ravishda hisobdan chiqariladi. Mijoz ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni boshqa hisobvaraqlardagi mablag'lardan naqd yoki naqd pulsiz shaklda ham amalga oshirishi mumkin.

6.3.Bank bank Tariflarini o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bunda bank Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida, ular kuchga kirishidan 10 kun oldin, xizmat ko'rsatish punktlarida, shuningdek bankning internet tarmog'idagi [www.sqb.uz](http://www.sqb.uz) sahifalarida joylashtirish orqali yoki boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qiladi.

## 7.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI:

7.1.Mijozning javobgarligi:

7.1.1.Bank karta hisobvarag'ida amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligiga va



bankka taqdim etilgan ma'lumotlar xamda hujjatlarning to'g'riligiga.

7.1.2.Bank karta hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishiga.

7.1.3.Bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza va/yoki telefon orqali xabar bermasligi oqibatida, bank kartasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarga.

7.2.Bankning javobgarligi:

7.2.1.O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuniga to'liq rioya qilish.

7.2.2.Bank kartasi hisobraqami bo'yicha noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlar uchun, bunda, noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlarni bekor qilinishi bilan Bankning javobgarligi cheklanadi.

7.2.3.Bank quyidagilar hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

Xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;

Uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartalariga xizmat ko'rsatishi rad etilganda;

Mijoz manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajadagi uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarga o'rnatilgan limitlar, cheklovlar va boshqa to'lovlar;

Mijoz tomonidan shartnoma shartlari buzilganda yoki mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holda;

bank kartasi egasining ruxsatisiz yoki bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza taqdim qilinishidan oldin bank kartasi vositasida bajarilgan tranzaksiyalar.

## **8.FORS-MAJOR HOLATLARI**

8.1. Yengib bo'lmaydigan yong'in, suv toshqini, zilzila, elektr tarmog'ining uzilishi/to'xtatilishi va taraflar imkoniyatidan tashqari to'siqlar (fors-major holatlari) vujudga kelganda hamda shu kabi mavjud bo'lgan boshqa holatlarda taraflar majburiyatlardan qisman yoki to'liq ozod etiladi.

## **9.NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

9.1.Shartnoma shartlari bajarilishi bo'yicha yuzaga keladigan baxs va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

9.2.Agarda ko'rsatib o'tilgan baxs va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan sud tartibida hal etiladi.

9.3.Taraflar dalil sifatida baxs yoki kelishmovchiliklarni hal qilishda amalga oshirilgan tranzaksiyalarni o'zida saqlovchi qurilmalardagi ma'lumotlarga tayanishi mumkin.

9.4.Yozma murojaatlar, taraflarning biri imzo qo'yib qabul qilib olganligi yoki

manziliga pochta orqali yuborilganligi to‘g‘risida pochta kvitansiyasi mavjud bo‘lganda, taraflar tomonidan qabul qilib olingan deb hisoblanadi.

## **10.SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH TARTIBI, BOSHQA SHARTLAR**

10.1.Mazkur oferta shartnomasi, mijoz tomonidan akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda bank kartasini amal qilish muddatiga qadar amalda bo‘ladi.

10.2.Mazkur ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547 sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq, Mijozga doir har qanday, shu jumladan avtomatlashtirilgan ma’lumotlarga ishlov berish va saqlash, shuningdek Mijozga doir ma’lumotlarini yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, foydalanish, berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, shuningdek ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun Shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishiga o‘z roziligini beradi.

10.3.Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

10.4.Ushbu shartnoma mijozning talabiga binoan istalgan vaqtda shaxsan bankka tashrif buyurgan holda bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha to‘lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

10.5.Shartnomani bekor qilinishi, bank karta hisobvarag‘ini yopish uchun asos bo‘ladi.

10.6.Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan, u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

### **Oferta beruvchi yuridik manzili:**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB**

Manzil: Toshkent sh., Shayhontoxur tumani, I. Karimov ko‘chasi, 55 uy.

MFO: 00440; STIR: 200 833 707

Telefon: (99871) 200-43-43, 1180

Veb sahifa: [www.sqb.uz](http://www.sqb.uz).”;